

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 233 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	



ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ichki auditning mohiyati va uning korporativ boshqaruvdagi roli yoritilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ichki auditning funksiyalariga aniqlik kiritilgan hamda ularning ichki nazoratni ta'minlashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit, operatsion audit, ichki nazorat, korporativ boshqaruv, ichki audit funksiyalari, risklarni boshqarish.

Abstract. This article describes the nature and role of internal audit in corporate governance. The research clarifies the functions of internal audit and reveals their importance in ensuring internal control.

Keywords: internal audit, operational audit, internal control, corporate governance, internal audit functions, risk management.

Аннотация. В данной статье описана сущность и роль внутреннего аудита в корпоративном управлении. В результате проведенного исследования уточнены функции внутреннего аудита и раскрыта их важность в обеспечении внутреннего контроля.

Ключевые слова: внутренний аудит, операционный аудит, внутренний контроль, корпоративное управление, функции внутреннего аудита, управление рисками.

KIRISH

Hozirgi zamonaviy iqtisodiy sharoitda korporativ boshqaruvning samaradorligini ta'minlash masalasi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda ichki audit faoliyati faqatgina moliyaviy nazorat va hisobotlarni tekshirish bilan cheklanmay, balki strategik va taktik qarorlar qabul qilishda muhim axborot va tahlil platformasi sifatida faoliyat yuritadi.

O'zbekistonda ichki audit tizimini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz korxonalarida ichki auditning samaradorligini yanada oshirish uchun mavjud imkoniyatlar keng bo'lib, xususan, ichki audit resurslarini bosqichma-bosqich mustahkamlash, riskka asoslangan audit metodologiyalarini joriy etish, ichki auditorlarning mustaqilligini kuchaytirish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish orqali ichki audit tizimining ta'sirchanligini yanada oshirish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki auditning mohiyati va uning funksiyalari xususida iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. Xususan, U. Andersen va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda quyidagi xulosalarga kelingan: "kompaniyalar o'zlarining ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimini samarali tarzda loyihalashtirish hamda rejalashtirilgan tadbirlar va ko'rsatmalarining amalga oshirilishini ta'minlash bilan tobora ko'proq qiziqishmoqda. Mazkur holat korporativ boshqaruv jarayonlari, risklarni boshqarish va ichki nazorat tizimlarini ta'minlashning asosiy elementi sifatida ichki auditning tobora dolzarbligini oshirmoqda" [1].

Boshqa bir iqtisodchi olimning fikricha, "ichki auditorlar biznes muhiti va ichki nazoratni bilishlari hamda tushunishlari tufayli ichki audit firibgarlikka qarshi birinchi himoya chizig'i hisoblanadi. Ichki auditorlar rahbariyat, kengash yoki audit qo'mitasining ko'rsatmalariga qarab, subyekt ichidagi firibgarlikning oldini olish va aniqlash uchun turli rollarni bajarishlari mumkin" [2].

L. Jiang va boshqalar "ichki auditning operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlardagi ishtiroki operatsion ko'rsatkichlar bilan sezilarli ijobiy bog'liqlikka ega ekanligini aniqlaganlar. Bundan tashqari, mualliflar ichki



auditni an'anaviy sohalarga (masalan, operatsion audit) va ko'proq biznesga yo'naltirilgan xizmatlarga (masalan, strategiya bo'yicha konsalting) ajratadilar va an'anaviy sohalaridagi ishonch xizmatlari ichki auditda keng tarqalganligini, maslahat xizmatlari esa kamroq tarqalganligini ko'rsatadilar" [3].

Boshqa iqtisodchi olimlarning fikricha, "ichki audit samarali korporativ boshqaruvni shakllantirish jarayonida, masalan, ichki nazorat, risklarni boshqarish va boshqaruv jarayonlari sohalarida qiymat yaratish orqali katta ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Bundan tashqari, ichki auditning maslahat faoliyati asosida boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash uchun jarayonlar va ma'lumotlarni takomillashtirish orqali qo'shimcha qiymat yaratish mumkin" [4].

K. Axmedjonovning ta'kidlashicha, "ichki audit — xo'jalik yurituvchi subyektlarga risklarni boshqarish, nazorat qilish va korporativ boshqaruv tizimiga maqbul yondashuv asosida qo'yilgan maqsadlarga erishishda yordam beruvchi, moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan obyektiv kafolat va maslahatlar beruvchi mustaqil tizim bo'lib, buxgalteriya ma'lumotlarining to'g'ri bo'lishini ta'minlash va korxonada samarali ichki nazorat tizimini tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatdir" [5].

Sh. I. Ixamov ham ichki audit va ichki nazorat metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borib, quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan: "ichki audit korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashning eng qulay vositalaridan biri bo'lib, u, o'z navbatida, korxonaning raqobat jihatdan ustunligini ta'minlashi mumkin" [6].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodchi olimlar tomonidan ko'proq ichki auditning mohiyati ochib berilgan. Ba'zi iqtisodchi olimlar tomonidan ichki auditning funksiyalariga ham aniqlik kiritilgan. Biroq yuqoridagi tadqiqotlarda ichki auditning funksiyalari to'liq ochib berilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni olib borishda taqqoslash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ichki audit korxona va tashkilotlarda korporativ boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. U tashkilot faoliyatini samarali tashkil etish, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Ichki audit tashkilot faoliyatini takomillashtirish va qiymat yaratishga qaratilgan mustaqil, xolis kafolat va maslahat faoliyati hisoblanadi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan ichki audit korxonada mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, ichki nazorat tizimining ishonchligini tekshirish hamda moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni oldindan aniqlashga yo'naltirilgan faoliyatdir. U faqat moliyaviy hisobotlar to'g'riligini tekshirish bilan cheklanib qolmasdan, ishlab chiqarish, ta'minot, sotish, investitsiya va boshqaruv jarayonlarini ham qamrab oladi.

Ichki auditning iqtisodiy mohiyati quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

- korxona mablag'lari va mulkning saqlanishini ta'minlash;
- xarajatlarning asossiz oshishining oldini olish;
- daromadlarning to'g'ri va o'z vaqtida tan olinishini ta'minlash;
- risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- strategik va taktik qarorlarni qabul qilishda ishonchli axborot bilan ta'minlash.

Korporativ boshqaruv tizimida ichki audit rahbariyat va kuzatuv kengashi o'rtasidagi muhim axborot ko'prigi vazifasini bajaradi. U boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va samaradorligini baholash imkonini yaratadi. Xorij tajribasida ichki audit to'g'ridan to'g'ri audit qo'mitasiga bo'ysunishi orqali uning mustaqilligi ta'minlanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda ichki audit faqat tekshiruv vositasi emas, balki strategik boshqaruv instrumenti sifatida qaraladi. U korxona rivojlanish strategiyasini baholash, investitsiya loyihalarining samaradorligini tahlil qilish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Ayniqsa, globallashtirish va raqobat kuchaygan sharoitda ichki auditning ahamiyati yanada ortadi. Chunki u korxonaga bozor o'zgarishlariga tez moslashish, risklarni oldindan aniqlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, ichki auditning mohiyati uning mustaqil, xolis va kompleks nazorat hamda maslahat faoliyati ekanligida namoyon bo'ladi. Ichki auditning iqtisodiy ahamiyati esa korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlash, risklarni kamaytirish va qiymat yaratishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Shu sababli, ichki auditni zamonaviy talablar va xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim shart hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. Ichki auditning asosiy funksiyalari¹

Funksiya	Mazmuni	Amaliy ahamiyati
Nazorat	Moliyaviy va operatsion jarayonlarni tekshirish	Xato va qonunbuzarliklarning oldini olish
Risklarni boshqarish	Risklarni aniqlash va baholash	Korxona barqarorligini ta'minlash
Maslahat	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha maslahat berish	Samarali qaror qabul qilish
Axborot	Hisobot shaffofligini ta'minlash	Investorlar ishonchini oshirish

Ichki auditning nazorat funksiyasi korxona faoliyatining ichki nazorat tizimi samaradorligini ta'minlashga qaratilgan. Bu funksiya orqali ichki audit:

- moliyaviy va operatsion ma'lumotlarning to'g'ri va aniq bo'lishini nazorat qiladi;
- resurslardan samarali va oqilona foydalanishni tekshiradi;
- firibgarlik holatlari va moliyaviy qoidabuzarliklarni aniqlaydi;

ichki nazorat mexanizmlarining ishlashini baholaydi va zaif nuqtalarini aniqlaydi.

Nazorat funksiyasiga asosan korporativ boshqaruvning asosiy kafolati sifatida qaraladi. Nazorat orqali aniqlangan kamchiliklar haqida ichki audit hisoboti tayyorlanadi va kuzatuv kengashiga taqdim etiladi, bu esa tezkor choralar ko'rishga imkoniyat yaratadi.

Risklarni boshqarish funksiyasi korxonaning iqtisodiy va moliyaviy risklarini aniqlash, baholash va kamaytirishga qaratiladi. Ichki audit bu funksiyani quyidagicha amalga oshiradi: korxonaning strategik va taktik maqsadlariga tahdid soluvchi risklarni aniqlaydi; har bir riskning ehtimoliy oqibatlarini baholaydi; risklarni nazorat qilish va ularni kamaytirish choralari taklif qiladi; risklarning monitoringini amalga oshirib, ularni doimiy ravishda tahlil qiladi.

Ichki auditning maslahat funksiyasi korxona boshqaruviga strategik va operatsion qarorlarni qabul qilishda yordam berishga qaratilgan. Bu funksiya orqali ichki audit korxonaning boshqaruv jarayonlarini tahlil qiladi va samaradorlikni oshirish uchun tavsiyalar beradi; yangi biznes-loyihalarni moliyaviy va operatsion tahlil qiladi; korporativ qonunchilik, komplayens va etika standartlariga muvofiqlikni ta'minlashda maslahat beradi; ichki audit faoliyati doirasida innovatsion qarorlar va raqamli transformatsiya loyihalari uchun ekspert fikrini taqdim etadi.

Axborot funksiyasi ichki auditning strategik ahamiyatga ega qismi bo'lib, u boshqaruvni oqilona va samarali qarorlar qabul qilish uchun kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Bu funksiyaning asosiy jihatlari audit natijalari va tahlillarini hisobotlar shaklida taqdim etish; moliyaviy, operatsion va strategik ma'lumotlarni birlashtirish; tahliliy va prognozli axborotni boshqaruvga taqdim etish orqali qarorlar asosini mustahkamlash; korporativ kommunikatsiya, axborot shaffofligi va ishonchlikni ta'minlashda o'z aksini topadi.

Ichki auditning mazkur to'rt funksiyasi bir-biri bilan uzviy bog'lanib, korxonaning barqarorligi hamda iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi. Shu tariqa, ichki audit nafaqat nazorat mexanizmi, balki strategik boshqaruvning integral qismi sifatida faoliyat yuritadi va biznes jarayonlarining optimallashtirilishiga ko'maklashadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi zamonaviy sharoitda ichki audit tizimi korporativ boshqaruvning strategik va taktik qarorlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki audit resurslardan samarali foydalanish, risklarni kamaytirish, faoliyat samaradorligi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim instrument hisoblanadi. Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, ichki audit nafaqat moliyaviy nazorat funksiyasini bajaradi, balki strategik qarorlarni asoslash va axborot funksiyasini ta'minlashda ham muhimdir.

Ichki audit nazorat, risklarni boshqarish, maslahat va axborot funksiyalarini o'z ichiga oladi. Nazorat funksiyasi korporativ faoliyatning qonuniyligi va samaradorligini ta'minlaydi; risklarni boshqarish funksiyasi resurslarning samarasiz sarflanishini kamaytiradi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi; maslahat funksiyasi strategik va taktik qarorlarni qabul qilishda rahbariyatga yordam beradi; axborot funksiyasi qaror qabul qilish uchun ishonchli va obyektiv ma'lumotlarni taqdim etadi.

Resurslar cheklangan sharoitda ichki audit faoliyatini risklarga qaratilgan tarzda tashkil etish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Bu usul ichki auditorlarga asosiy va muhim obyektlarga e'tibor qaratish imkonini beradi hamda resurslarni tejashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anderson U., Christ M., Johnstone K., Rittenberg L. (2012). A Post-SOX Examination of Factors Associated with the Size of Internal Audit Functions. Accounting Horizons, 26(2), 167–191. <https://doi.org/10.2308/acch-50115>

¹ Muallif ishlanmasi.



2. Ali Kadhim Hussein Al-Fatlawi. (2018). The Role of Internal Auditing and Internal Control System on the Financial Performance Quality in Banking Sector. // *Opcion*, 34-yil, № 86. 3045–3056-betlar.
3. Jiang L., Messier Jr. W. F., Wood D. A. (2016). The Association between Internal Audit Operations-Related Services and Firm Operating Performance. *Auditing: A Journal of Practice & Theory*, forthcoming. <https://doi.org/10.2308/ajpt-52565>
4. Eulerich A., Eulerich M. (2020). What Is the Value of Internal Auditing? – A Literature Review on Qualitative and Quantitative Perspectives. // *Maandblad voor Accountancy en Bedrijfseconomie*, 94(3/4), 83–92-betlar.
5. Axmedjonov K. B. (2016). Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. — Toshkent: O'zR BMA. — 76 b.
6. Ilxamov Sh. I. (2021). Ichki auditni tashkil etish konsepsiyasi. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, № 6, noyabr–dekabr. 72–79-betlar.
7. Sawyer L. B., Dittenhofer M. A., Scheiner J. H. (2012). *Sawyer's Internal Auditing*. — Florida: The Institute of Internal Auditors. — 1100 b.
8. Moeller R. R. (2016). *Executive's Guide to COSO Internal Controls: Understanding and Implementing the New Framework*. — New Jersey: Wiley. — 432 b.
9. Arena M., Azzone G. (2009). Identifying Organizational Drivers of Internal Audit Effectiveness. *International Journal of Auditing*, 13(1), 43–60.
10. Institute of Internal Auditors (IIA). (2017). *International Professional Practices Framework (IPPF)*. — Altamonte Springs, FL: IIA.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100